



## EVOLUTION OF SOCIAL PARTNERSHIP RELATIONS IN UZBEKISTAN AND WORLD EXPERIENCE

**Enajon Nishanbayeva**

Associate Professor

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** social partnership, public control, social work, gradual development, non-governmental sector, civil society, evolution, democracy.

**Received:** 30.12.24

**Accepted:** 01.01.25

**Published:** 03.01.25

**Abstract:** This article analyzes the evolution of social exchange relations in Uzbekistan and world experience. At the same time, using the example of a number of developed countries, the stage-by-stage processes of public control development are analyzed.

## O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY SHYERIKLIK MUNOSABATLARI EVOLYUSIYASI VA JAHON TAJRIBASI

**Enajon Nishanbayeva**

dotsent

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy-mehnat sohasi, tadrijiy rivojlanish, nodavlat sektor, fuqarolik jamiyati, evolyusiya, demokratiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlari evolyusiyasi va jahon tajribasi tahlil qilingan. Shu bilan birga jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning tadrijiy rivojlanish jarayonlari bir nechta rivojlangan davlatlar misolida tahlil qilinadi.

## ЭВОЛЮЦИЯ ОТНОШЕНИЙ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И МИРОВОЙ ОПЫТ

**Энажон Нишанбаева**

Доцент

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

|                        |                                                                                                                                                                     |                   |                                                                                                                                                                                                             |
|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ключевые слова:</b> | социальное партнерство, общественный контроль, сфера социальной работы, постепенное развитие, негосударственный сектор, гражданское общество, эволюция, демократия. | <b>Аннотация:</b> | В данной статье анализируется эволюция отношений социального обмена в Узбекистане и мировой опыт. При этом на примере ряда развитых стран анализируются поэтапные процессы развития общественного контроля. |
|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Ijtimoiy sheriklik jamiyat rivojining strategik nuqtai nazaridan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi demokratik aloqadorlikning o'ziga xos modeli hamdir. Uning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bunday fenomen negizida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan yangi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar shakllana boshlaydi. Bu borada ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyati instituti vakillarining birgalikdagi va yakka tartibdagi xatti-harakati samaradorligini oshirish, ularning faoliyat ko'lamini kengaytirish uchun muhim omillardan biriga aylanadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining evolyusiyasini o'rganishga intilish qadim zamonlardan beri mavjud. Ijtimoiy sheriklik nazariyasi hozirgi sharoitda ijtimoiy fanlardagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lsada, uning shakllanish tarixi, evolyusiyasi, Yangi O'zbekistonni barpo etishdagi ahamiyati nisbatan kam o'rganilgan muammolar sirasiga kiradi.

Darhaqiqat, hozircha, ijtimoiy sheriklikni tadqiq qilishda qo'llanilayotgan tushunchalarga nisbatan yakdil, qat'iy munosabat shakllanmagan. Bu esa ilmiy-nazariy xulosalarning, amaliy tavsiyalarning turli tumanligini, hatto, ularning qarama-qarshiligini keltirib chiqarmoqda. Bizning nazarimizda, buning ob'yektiv va sub'yektiv sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ma'lum davrga qadar ijtimoiy sheriklik munosabatlari ilmiy nuqtai-nazardan qaraganda yagona ta'rif va tasnifga ega emas edi, ya'ni bu tushuncha sosiologiya, falsafa, psixologiya, siyosatshunoslik fanlari doirasida nazariy-metodologik asoslari, fundamental va eksperimental bazalari yaratilmagan edi.

Qolaversa, tadqiqot ishimizning ob'yekti nuqtai nazaridan mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlanish tarixini chuqur o'rganish ishlari ham amalga oshirilmaganligini ta'kidlash zarur.

Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda ijtimoiy sheriklik maqsadlarining umumiyliги va uyg'unligi tarkib topmagan. Shu boisdan ham iqtisodchi M.Mirzakarimova "Ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda ijtimoiy sheriklik bir xil bo'lmagan va ko'p jihatli ibora sifatida tavsiflanadi.

Ba'zilar uni ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, sinflar, jamoalar va ma'lum tuzilmalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos turi sifatida; boshqalar davlat organlari, ishlovchilar va ish beruvchilar vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmi sifatida; uchinchilar esa

yollanma ishchilar va ish beruvchilarning teng huquqli hamkorligi asosida maqbul muvozanatni va ularning asosiy qiziqishlari o'xshashligiga va boshqa tomondan, mazkur tushunchani aniqlashtiradigan boshqa nuqtai nazarlarga qaramasdan, ularning asosiy qiziqishlarining amalga oshirilishini ta'minlaydigan bozor iqtisodiyotiga xos ijtimoiy mehnat munosabatlarining alohida turi sifatida izohlaydilar"[1]deb ta'kidlaydi.

Bizning nazarimizda bu mualliflik yondashuvida "ijtimoiy sheriklik" tushunchasi tor ma'noda, ya'ni, bandlik va mehnat munosabatlari doirasida chegaralanib qolgan bo'lib, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro manfaatli aloqadorligini ta'minlash xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan.

Uchinchidan, hamma sohalarning, shu jumladan ijtimoiy sheriklikning ham, muayyan manfaatlar asosida mafkuralashtirilishi asrlar davomida shakllangan insonparvarlik qadriyatlaridan voz kechishga, yangilarining vujudga kelishiga to'sqinlik qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining genezisi va evolyusiyasi haqida ma'lumot beruvchi nazariy manbalarni, shuningdek, bu sohaga oid g'oyalar va konsepsiyalarni o'rganish, mazkur jarayonda ham ijobiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi, salbiy hodisalarni aniqlashga imkon beradi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sheriklik o'zining rivojlanish va takomillashish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu tajriba barcha rivojlangan mamlakatlarda turli ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin. Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik bilan bog'liq bo'lgan va insoniyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan g'oyalar jamiyat taraqqiyoti, undagi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni saqlashda faol qo'llanilmoqda.

Masalaga ayni shu ma'nodagi yondashuv ijtimoiy sheriklik fenomeni, uning ko'pqirrali ekani va mavjud tajribani turli tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi haqida ilmiy taassurotni shakllantirish imkonini beradi. Ijtimoiy sheriklik jamiyatda ehtimolli nizolarni maqbul yo'l bilan hal etish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Keyingi paytlarda turli yo'nalishdagi ilmiy doira vakillarining unga qiziqishi ortishi mazkur fenomendan hayotning turli jabhalarida foydalanish imkoni keng ekanligidan dalolat beradi.

Tarixiy tahlil ijtimoiy sheriklik munosabatlari evolyusiyasida ma'lum bir tendensiyalar namoyon bo'lishi haqida ma'lumotlar beradi. Uning paydo bo'lishining ob'yektiv va sub'yektiv shartlari XIX asrda, kasbiy va xo'jalik birlashmalari hayotiga mustahkam kirib borgan va davlat mehnat va kapital o'rtasidagi ziddiyatlarda hakam bo'lishga majbur bo'lgan paytda paydo bo'ldi. Ayni chog'da, ijtimoiy sheriklik fenomenining o'zi, ba'zan boshqa nomlar ostida, g'oyaviy va amaliy jihatdan XX asrning birinchi yarmidagi larzalar (1917 yil inqilobi, AQSHdagi "Buyuk

depressiya”, “Germaniyadagi Birinchi jahon urushining oqibatlari” v.b.) ta’siri ostida vujudga kelganligini aytish zarur.

Ijtimoiy sheriklik munosabatlarining paydo bo‘lishiga rivojlangan mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy tuzilishining murakkablashishi ham yordam berdi, bu yerda umumiy farovonlik darajasi o‘sshi tufayli ko‘p sonli kichik, o‘rta investorlarning manfaatlarini ifodalovchi, ularga o‘z mulkini boshqarishni ishonib topshirgan mulkdorlar soni ko‘paydi. Kichik biznesning mavqei mustahkamlandi, uning iqtisodiyotdagi roli oshdi. Ham davlat, ham nodavlat tashkilot va muassasalarda ishlayotgan xodimlar soni va roli sezilarli darajada oshdi. XX asrda o‘z mamlakatida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdan, jamiyatdagi ijtimoiy kataklizm belgilarini bartaraf etishdan tubdan manfaatdor bo‘lgan “o‘rta sinf” shakllandi.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Yel mamlakatlari, Yaponiya va boshqalar) mavjud bo‘lgan zamonaviy ijtimoiy sheriklik, odatda, murosaga, jamiyatdagi turli xil ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy kuchlar manfaatlarini hisobga oladigan o‘zaro maqbul shartlarning optimal formulasini ishlab chiqishga asoslanadi. Ish beruvchilar va xodimlarning pozitsiyasiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan talablarni qo‘yish amaliyoti o‘tmishda qoldi. Buni, ayniqsa, biznes bilan hamkorlik qilish bo‘yicha salmoqli va institusional tajribaga ega bo‘lgan kasaba uyushmalari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotda katta tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish zarurligini anglagan holda mehnatkashlar manfaatlarini himoya qilishda jiddiy yon bosayotgan Germaniyada yaqqol ko‘rish mumkin. Albatta, dunyoda ijtimoiy sheriklikning ancha chuqur an‘analari mavjud bo‘lib, ularni doimo o‘rganish kerak.

Ijtimoiy sheriklikning turli shakllarida rivojlanishi – zamonaviy bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘nalishini mustahkamlash va uni ijtimoiylashtirishning muhim qismidir. Ijtimoiy sheriklik tizimida ishchilarning manfaatlarini, odatda, kasaba uyushmalari[2], ish beruvchilar manfaatlarini – tadbirkorlar uyushmalari manfaatlarini[3] bilan ifodalanadi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy sheriklik “uch tomonlama” deb ataladi, manfaatlarini muvofiqlashtirish jarayonidagi uchinchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirokchi – bu davlat bo‘lib, qabul qilingan kelishuvlarning amalga oshirilishini kafolatlaydi.

XX asrning 60- va 70-yillarida G‘arb mamlakatlari biznes-hamjamiyatlari uchun og‘ir sinov – ishbilarmon tashkilotlarga soliq yuklamasining ancha o‘sshi davlatning biznesni turli ijtimoiy loyihalarni birgalikda moliyalashtirishga jalb qilish bo‘yicha faol siyosati bilan birga bordi. Bu davrda ommaviy bo‘lgan “korporativ altruizm” konsepsiyasi biznesning ijtimoiy

javobgarligini kompaniya barcha manfaatdor tomonlarining birgalikdagi harakati natijasi sifatida tushunishni yoqlab chiqdi[4].

Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ijtimoiy sheriklikning quyidagi modellari ishlab chiqilganligini uchratishimiz mumkin.

Amerika modeliga ko'ra, xodimlar tashkilot boshqaruvida ishtirok eta oladi. Bunda xodim o'zi ishlayotgan korxonani boshqarishda ham, unga egalik qilishda ham qatnashishi nazarda tutiladi. Ishtirok turli shakllarda: muammolarni hal etish bo'yicha guruhni tashkil etishdan boshlab to xodimlarni direktorlar kengashiga saylab olgunga qadar amalga oshirilishi mumkin. Amerika modelida ishlab chiqarish kengashlari keng tarqalgan bo'lib, ularga barcha xodimlarning vakillari: oddiy ishchilardan tortib top-menejerlargacha kiradi. Ularning maqsadi korxonada barcha guruhlarining manfaatlarini iloji boricha hisobga oluvchi qarorlarni birgalikda ishlab chiqish va qabul qilishdan iborat.[5]

Ijtimoiy sheriklikning nemis modeli milliy va korporativ hamjihatlik tizimiga asoslangan bo'lib, u tegishli moliyaviy mexanizmlarni (masalan, ijtimoiy sug'urta) shakllantirish orqali qo'llab-quvvatlanadi. Ijtimoiy fondlarda ishtirok etish ish beruvchi uchun ham, xodim uchun majburiydir hamda bularning barchasi davlat tomonidan tartibga solinadi. Germaniya modeli xodimlar va ish beruvchilarning o'zaro majburiyatlariga asoslangan bo'lib, ko'proq ishlaydigan, ko'proq pul topadigan va ijtimoiy badallar to'laydigan kishi yaxshi ta'minlangan hisoblanadi. Davlat xodimlarni ish bilan ta'minlashning barcha asosiy shartlarini belgilaydi.[6]

Ijtimoiy sheriklikning anglo-sakson modeli biznes, birinchi navbatda, o'zining iqtisodiy va moliyaviy manfaatlarini, kompaniya foydasini ko'zlashini va xodimlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish qonunchilik asosida emas, balki kompaniya va biznes uyushmalarining kodekslariga muvofiq bo'lishini nazarda tutadi. Ijtimoiy sheriklik va xodimlarning ijtimoiy muammolarini hal etish biznes hamjamiyatidagi an'analarga, ish beruvchilarning axloqiy tamoyillariga bog'liq hisoblanadi.[7]

Bilamizki, ko'pgina xorijiy mamlakatlarda davlat bilan nodavlat sektorning o'zaro munosabatlari turli qonun hujjatlari bilan yoki "hukumat va fuqarolik sektori" o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar doirasida tartibga solingan. Rivojlangan davlatlarda ham davlatning nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro sherikligini va uni amalga oshirish mexanizmini belgilab beruvchi yagona qonun hujjati mavjud emas edi. Shu ma'noda O'zbekistonda qabul qilingan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonunda bu sohadagi munosabatlarni bir qonun doirasida hal etishga erishildi.

Ijtimoiy sheriklik sohasida umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlarini tahlil etish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy sheriklikni qonunchilik asoslariga binoan tartibga solish xorij tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Industrial mamlakatlarda ijtimoiy sheriklik turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xususan, bunda korporativ tizim maxsus organ (institut), jarayonlar va mexanizmlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu kabi amaliyot Avstriya, Shvesiya, Yaponiya, Germaniya, Shveysariya, Niderlandiyada keng tarqaldi. Masalan, Avstriyada ijtimoiy sheriklik ham umummilliy, ham tarmoqlararo darajada keng tizimli maslahat kengashlari va qo'mitalari vositasida amalga oshiriladi. Ijtimoiy sheriklikning maxsus institutlari mavjud bo'lmagan davlatlarda plyuralistik tizim amal qiladi (Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada). Bu yerda qarama-qarshi manfaatlarining kelishuvi oddiy siyosiy jarayon (partiya, parlament, kasaba uyushmalari) orqali butun jamiyat darajasida, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish esa alohida korxonalar darajasida amalga oshiriladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa mamlakatlarining bu sohadagi samarali harakati natijasida ularning aksariyatida tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va davlat tashkilotlari vakillaridan iborat bo'lgan milliy ijtimoiy-iqtisodiy kengashlar tuzildi. Jumladan, Italiyada 1947 yilda Iqtisodiy va mehnat milliy kengashi, Belgiyada 1948 yilda Markaziy iqtisodiy kengash, 1952 yilda esa Mehnat bo'yicha milliy kengash, Niderlandiyada 1950 yilda Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, keyinchalik esa Mehnat muammolari bo'yicha kengashlar tashkil topgan. Fransiya 1958 yildan, Buyuk Britaniyada esa 1962 yildan hozirga qadar Iqtisodiy va ijtimoiy kengashlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasining (1958 yil 4 oktyabrdagi) XI-bo'limida (69-, 70- va 71-moddalar) Iqtisodiy va ijtimoiy kengashning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi belgilangan bo'lib, unga binoan Kengashga hukumatning so'roviga asosan qonun loyihalariga, ordonans (qonun kuchiga ega bo'lgan va Parlament ruhsati bilan hukumat tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlar) va direktivalar, qonunchilik takliflari yuzasidan xulosa berishi, Parlament palatalarida unga taqdim etilgan qonun loyihalari va qonunchilik takliflari yuzasidan xulosani eshittirish maqsadida o'z a'zosini tayinlashi, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi istalgan muammolar yuzasidan hukumatga maslahatlar berishiga doir huquqiy asoslar mujassamlashgan [8].

BMT Xalqaro mehnat tashkilotining standartlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ham o'z ifodasini topa boshladi. 1949 yildagi "Jamoaviy muzokaralarni tashkillashtirish va olib borish uchun huquqlar tamoyillarini tatbiq qilish to'g'risida"gi 98-sonli konvensiya va "Jamoaviy muzokaralarga ko'maklashish to'g'risida"gi 154-sonli konvensiya XMTning

jamoaviy-shartnomaviy tartibga solish sohasida O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan asosiy konvensiyalari hisoblanadi.

Xalqaro huquqning milliy mehnat qonunlariga ta'siri to'g'risida so'z yuritilganda, xalqaro huquqda mustahkamlangan ayrim me'yorlar «jus cogens» xususiyatiga egaligi va shu tufayli shartnoma ratifikatsiya qilinganligidan qat'iy nazar, barcha davlatlar uchun majburiy ekanligini nazarda tutish kerak. Ijtimoiy sheriklik sohasiga tegishli misol sifatida XMTning "Mehnat sohasidagi eng muhim tamoyillar va huquqlar to'g'risida"gi Deklaratsiyasidagi eng muhim 8 ta konvensiyadan biri deb e'tirof qilingan «Birlashish erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to'g'risida»gi 87-sonli konvensiyani keltirib o'tish mumkin (1998). Ushbu Deklaratsiyaga muvofiq, mamlakat XMTning eng muhim 8 ta Konvensiyasini ratifikatsiya qilganligi yoki ratifikatsiya qilmaganligidan qat'iy nazar, ushbu mamlakat hukumati ushbu konvensiya tomonidan berilgan huquqqa qanday rioya qilinayotganligi to'g'risida hisobot berishi kerak. Shunday qilib, xalqaro huquqning milliy qonunlarga bevosita ta'siri yuz beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sherikchilik munosabatlarining takomillashtirish asosan BMT, XMT va boshqa mehnat munosabatlariga doir xalqaro tashkilotlarning me'yoriy hujjatlari hamda o'zimizga hos va mos xususiyatlarni hisobga olgan holda milliy an'analar uyg'unligi asosida amalga oshirilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirzakarimova M., Xaydarov M. Ijtimoiy sheriklik va samarali bandlik. Monografiya. Toshkent: 2014. –B.4.
2. <http://www.fnpr.ru/n/251/6004.html>
3. <http://www.tpprf.ru/ru/members/communities/>
4. Индилов Э.В., Синяев В.В. Разработка эффективной маркетинговой стратегии: комплексный подход // Российское предпринимательство, 2009, №10, вып. 2 (145). –С. 33–38.
5. Makhamatov M.M. International standards on social partnership and national legislation of the Republic of Uzbekistan. Journal of Law Research. 2023, 8 vol., issue 11, pp. 113-119.
6. Makhamatov M.M. International standards on social partnership and national legislation of the Republic of Uzbekistan. Journal of Law Research. 2023, 8 vol., issue 11, pp. 116
- 7 Колесникова Н.А., Нестеров Ю.А.Социальное партнерство в современной России // Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ. 2018. №1. – С. 122.
8. Конституция Франции//Конституции зарубежных государств. Учебное пособие. 2-е изд., исправ.и доп.-М.: Издательство БЕК,1997. С.128.